

SAMARQAND VILOYATI JINOYAT ISHLARI SUDI TOMONIDAN KO'RILGAN ISHLARNI O'RGANISH NATIJALARI

Alibayeva Zuhra

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

e-mail:zuxraaliboyeva00@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17512393>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1- noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 2-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 3-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

Jinoiy javobgarlik, jinoyat, firibgarlik, transport vositalaridan foydalanishdagi qonun buzarlilik, ozodlikdan mahrum qilish joylari, qayta tarbiyalash.

ABSTRACT


Bu maqola Samarqand viloyati jinoyat ishlari sudi tomonidan ko'rilgan ishlarning MY SUD.UZ interaktiv xizmatlar portalida elon qilgan qarorlarini tahliliy o'rganish asosida yozildi. Samarqand viloyati jinoyat ishlari sudida ko'rilgan ishlarning statistik tahlili yillar va jinoyat sodir etgan shaxslarning yoshi raqamlar va diagramma shakllarida berildi.

Kirish

Jinoyat tushunchasi Qadim davrlardan buyon mavjud bo'lib, bu tushuncha hech bir inson uchun yangilik emas. Bu illat ba'zi davlatlarda juda ham keng tarqalib ketmoqda afsuski. Bu tushuncha bizning davlatimiz uchun begona emas. Kuzatishlar va statistika ma'lumotlari asosida jinoiy javobgarlikka tortish holatlari ko'payib borayotganligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston respublikasida jinoiy javobgarlikka tortilganlar statistikasiga qarasaq 2025-yil 1-yanvardan 1-oktabr sanasigacha 40137 ta jinoiy javobgarlik qayd qilinmoqda. Har 1000 aholiga jinoiy javobgarlikka tortilish foizi 1,05% ni tashkil etmoqda. Shuningdek 2024-yilga nisbatan bu raqam 0,05 promillega kamaygan.


2025-yilning yanvar-oktabr oylari davomida jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar holati yuzasidan tahlil, jinoyat miqyosi, tuzilmasi hamda ijtimoiy-demografik xususiyatlari haqida muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Samarqand viloyati tumanlarida 2025-yil yanvar-oktabr oralig'ida 3998 marotaba jinoyat sodir etilgan. Har bir tumanning koeffitsiyenti hisobi bo'yicha- Bulung'ur(4,1%), Ishtixon(5%), jomboy(11,8%), Kattaqo'rg'on(6,5%), Narpay(5,2%), NUrobod (4,4%), Oqdaryo (7,9%), Pastdarg'om (11,5%), Paxtachi (5,2%), Payariq (7,7%), QO'shrabot (6,8%), Toyloq (4,8%) va Urgut (18,5%). Bu ko'rsatkichlardan xulosa qiladigan bo'sak, jinoyat sodir etilishi bo'yicha Urgut va Jomboy tumanlari eng yuqori natijani ko'satmoqda va eng kam miqdordagi jinoyatlar NUrobod va Bulung'ur tumanlarida bo'lmoqda. Shuning uchun jinoyatlar ko'roq sodir bo'layotgan tumanlarni o'rganib chiqib nima sababdan jinoyatlar ko'payayotganligining sabablarini aniqlashimiz lozim. Shuningdek bu hududlarda jinoyatchilikni kamaytirish uchun amaliy ishlar amalga oshirish, jinoyatchilikka qarshi jamiyat nazoratini o'rnatmoq va javobgarlikni o'tayotgan shaxslarni qayta tarbiyalanishlari ustidan nazoratni kuchaytirmoq lozim.



Shu sababda eng ko'p jinoyatlar sodir bo'layotgan tumanlardan biridagi jinoyatlarni tahlil qilib chiqamiz. Jinoyat bo'yicha Urgut tumanidan keyingi 2-o'rinni egallagan tuman Jomboy tumanidagi oylik jinoyat tahlilini ko'rib chiqaylik. Yanvar-oktabr oylarida umumiy 474ta jinoyat ishlari ko'rib chiqilgan.

Jomboy tumanida 2025-yil bo'yicha jinoyat ishlari tahlili




Bu 9 oylik natija jinoyatlar soni qanchalik ko'payganligini ko'rsatmoqda. Butun O'zbekiston hududida 208ta tuman va shaharlar mavjud. Agarda har bir tumanda 9 oy davomida 474 marotaba jinoyat sodir etilganda edi. O'zbekiston aholisining 3.85 % qizmi jinoyat sodir qilgan bo'lar edi va bu faqat 9 oylik natija bo'yicha. Har bir oyda necha marotaba jinoyat ishlari bo'lganligini ko'rib chiqaylik: Yanvar-70, fevral-37, mart-47, aprel-52, may-31, iyun-63. Iyul-67 avgust-80, va sentabr-17 marotaba jinoyat ishlari bo'yicha sud bo'lib o'tgan. Eng ko'p ko'rsatkich avgust oyida kuzatilgan. Shu sabali aynan avgust va yanvar oylarida profilaktika ishlarini ko'paytirishimiz lozim. Shuningdek o'sha oylarda yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi mashg'ulotlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'rtacha oylik jinoyat 52 tani tashkil qilmoqda. Yanvar-iyul oylari jinoyat ishlari kamayganligini ham ko'rish

mumkin. Bu jinoyatchilikka qarshi qilingan ishlar amal qilganligini ko'rishimiz mumkin deb taxmin qilishimiz mumkin. Shuningdek avgust oylardagi jinoyatchilikning ko'payishining bir sababi sifatida maktab yoshidagi bolalarning uyda bekor o'tirganliklari ham bo'lishi mumkin. Chunki hozirda maktabda tahsil olayotgan bolalar soni 6776.3ming nafarga yetganli va ularning ko'pchiligi ta'til vaqtida bo'sh bo'lishidir.

Jamiyatda ko'plab jinoyatlar turilari mavjud bo'lib, ulardan ba'zilar juda ham ommalashib bormoqda. Bu jadval orqali aynan qaysi turdagi jinoyatlar ko'proq tarqalayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Jomboy tumanida eng ko'p tarqalgan jinoyatlar taqsimoti (2025-yil)




Bu jadvalda ko'rishimiz mumkin. Eng ko'p tarqalgan jinoyat bu fribgarlik ekan. Fribgarlik umumiy jinoyatlarning 22.3%ni tashkil etmoqda. Bu yerda shunga e'tiborimizni qaratishimiz mumkinki qotillik jinoyati 0.4%ni tashkil etganidir va bu jinoyat turining kamayganligi guvohi bo'lmoqdamiz. Bu yil hisobidan qasddan inson hayotiga suiqasd qilish 2 holatdagina kuzatilgan. Biz asosiy e'tiborimizni fribgarlikka va transport vositalaridan foydalanishdagi qoida buzarlikka qaratishimiz lozim deb o'ylaymiz. Shu sababdan Vazirlar mahkamasining transport vositasini haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tartibini litsenziyalashni yo'lga qo'yish borasida qaror qabul qildi. Unga ko'ra transport vositasi haydovchilari imtihon topshirish orqaligina, elektron tartibdagi guvohnomani qo'lga kiritishlari mumkin¹.

Jinoyat sodir etish, aynan qaysi jins vakillari tomonidan ko'roq amalga oshiriladi, degan savol hammamizni qiziqtirgan bo'lishi mumkin. Biz Jomboy tumanidagi 100 ta jinoyat ishlarini olib tahlil qildik. Bundan ko'rishimiz mumkin-jinoyatlarning 90% qismi erkaklar tomonidan qolgan 10% esa ayollar tomonidan amalga oshirilgan. Biz bu bilan erkaklar jinoyatga moyil bo'ladi demoqchi emasmiz. Bundan biz boshqacha xulosa qilsak bo'di. Buning bir qancha sabalari mavjud bo'lishi mumkin. Birinchidan oila ma'suliyati, ya'ni bizning jamiyatimizda oilaning asosiy ma'suliyati erkak Kishida bo'ladi va u oylani boqishga majbur. Ikkinchidan, kayf-safo singari yomon odatlar. O'zbekistonda 15 yoshdan katta bo'lgan barcha

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaori, 15.10.2025.yildagi 642-son

aholi hisobi bo'yicha, bir yilga har bir aholi uchun spirtli ichimliklar iste'mol qilish 2.10 litr miqdorni tashkil qilgan.² Bu statistikaga qaraydiga bo'lsak O'zbekiston aholisining barchasi ham spirtli ichimliklar iste'mol qilmaydi. Iste'mol qiladiganlar soniga nisbatan bu ko'rsatkich juda baland hisoblanadi. Shuningdek spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchilarning ko'pchiligini erkaklar tashkil qiladi. Uchinchidan, mol-mulkka bo'lgan qiziqish ya'ni qimmat baho uylar va mashinalarga. Fevral oyidagi, Kia salonidagi statistikaga qaraganda avto mashinalar sotib olganlarning 64.8%ni erkaklar tashkil qilmoqda.³ Fevral oyida bu salondan 1740 dona avto mashina sotilgan bo'lib ulardan 1127 tasi erkaklar tomonidan harid qilinganligini ko'ramiz.



Umuman olganda, tahlil natijalariga ko'ra, jinoyatlar asosan o'rta yoshdagi, faol hayot davrida bo'lgan fuqarolar tomonidan sodir etilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bois, profilaktika va huquqiy targ'ibot ishlari aynan 35-45 yosh oralig'idagi aholiga yo'naltirilishi, ijobiy natijalar berishi mumkin.

Xulosa: Jinoyatchilikning oldini olish uchun bir qancha ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Jumladan:

1. Yoshlar o'rtasida tushuntirish ishlarini amalga oshirish va ularning huquqiy bilimlarini oshirish lozim
2. Eng ko'p tarqalayotgan jinoyatlar borasida aholini xabardor qilish va bu jinoyatlardan saqlanish uchun ularga amaliy maslahatlar berish.
3. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan shaxslarni qayta tarbiyalanishi uchun barcha sharoitlarni yaratish va ularni qayta tarbiyalash uchun zarur bo'lgan dasturlarni ishlab chiqish. Ularning ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod bo'lgandan keyingi hayotini yaxshilashga va jamiyaga qo'shila olishga yordam berish.
4. Transport vositalari haydovchilarining malakasini oshirish uchun maxsus bepul kurslar tashkil qilish.
5. Jinoyatchilarni jazolash tartibi qandayligi va qonun hamma uchun teng ekanligini aholiga singdirish uchun turli tadbirlar amalga oshirish. Aholini davlatning adolatiga shubha bilan qaraydigan holatlarni oldini olish lozim.

² Alkogol iste'mol qilish bo'yicha dunyo reytingi e'lon qilindi . maqola Alibek Beyjanov-qalampir.uz

³ A.Ikromov. Z.Ziyayev – O'zbekiston respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati 2022- 439bet

Bundan biz jinoyatchilik ko'yib ketayotganligini va ularni oldini olishga hammamiz masul ekanligimizni xulosa qilsak bo'ladi. O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaro bir-birlari oldida ma'sul hisoblanadi. Shuning uchun jinoyatlarning oldini olishda har bir fuqaro harakat qilshi va loqaydlikni yo'q qilmog'i lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1..O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaori, 15.10.2025.yildagi 642-son
- 2.Alkogol iste'mol qilish bo'yicha dunyo reytinggi e'lon qilindi . maqola Alibek Beyjanov-qalampir.uz
- 3.A.Ikromov. Z.Ziyayev – O'zbekiston respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati 2022- 439bet
4. MY SUD.UZ sayti

